XIVA TARIXIY ME’MORCHILIGIGA XOS AN’ANAVIY KOMPOZITSION YECHIMLARDAN ZAMONAVIY ARXITEKTURADA FOYDALANISH TAMOYILLARI

Matkurbanova Xayotxon
Email: matkurbanovaxayotxon@gmail.com
+998955554488

Annotatsiya: *Mazkur tezis Xiva shahri tarixiy me’morchiligiga xos an’anaviy kompozitsion yechimlarni o‘rganish va ularni zamonaviy arxitekturada qo‘llash tamoyillarini aniqlashga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Xiva me’moriy muhitining shakllanish xususiyatlari, bino va inshootlarning hajmiy-fazoviy tuzilishi, mutanosiblik, ritm, simmetriya, ichki hovli, peshtoq, ravoq, ayvon, gumbaz hamda milliy bezak va rang yechimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur an’anaviy elementlarni zamonaviy funksional va texnologik talablar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida tarixiy shakllarni aynan takrorlashdan ko‘ra, ularning kompozitsion mohiyatini zamonaviy me’moriy yechimlarda qayta talqin qilish, bino masshtabi va ritmini tarixiy muhit bilan uyg‘unlashtirish, mahalliy material va ranglardan foydalanish kabi asosiy tamoyillar taklif etiladi. Ushbu yondashuv Xivaning tarixiy-me’moriy qiyofasini saqlagan holda zamonaviy arxitektura obyektlarini shakllantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Xiva, tarixiy me’morchilik, Ichan-Qal’a, kompozitsion yechim, an’anaviy me’morchilik, zamonaviy arxitektura, me’moriy meros, mutanosiblik, ritm, milliy uslub.*

Mavzuning dolzarbligi:

Bugungi kunda tarixiy shaharlarning me’moriy qiyofasini saqlash bilan birga, zamonaviy qurilish talablarini ta’minlash muhim masalalardan biridir. Xiva kabi boy tarixiy-me’moriy merosga ega shaharlarda yangi binolarni loyihalashda mavjud tarixiy muhit bilan uyg‘unlikni ta’minlash zarur. Shu sababli Xiva an’anaviy me’morchiligiga xos kompozitsion yechimlarni o‘rganish va ularni zamonaviy arxitekturada zamonaviy talablarga mos ravishda qo‘llash tamoyillarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Kirish: Xiva Markaziy Osiyoning qadimiy shaharsozlik va me’morchilik an’analarini o‘zida mujassam etgan noyob tarixiy shaharlardan biridir. Shaharning tarixiy qiyofasi, ayniqsa, Ichan-Qal’a hududida shakllangan me’moriy ansambllar,

mahalliy qurilish materiallari, hajmiy-fazoviy yechimlar, bezak san’ati hamda ko‘cha va ichki hovli makonlarining o‘zaro uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Xiva me’morchiligida bino va inshootlarning alohida shakli bilan bir qatorda, ularning umumiy shahar muhiti bilan munosabati, masshtabi, ritmi, mutanosibligi va fazoviy tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Xiva me’morchiligi nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy arxitektura uchun ham muhim ijodiy va kompozitsion manba hisoblanadi.

Bugungi kunda shaharlarning jadal rivojlanishi va yangi qurilishlarning ko‘payishi tarixiy shahar muhitini saqlash masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda. Xususan, tarixiy hududlarda yangi binolarni loyihalashda zamonaviy funksional, konstruktiv va texnologik talablarni ta’minlash bilan birga, mavjud me’moriy muhitning o‘ziga xosligini saqlab qolish zarur. Bunday sharoitda tarixiy me’morchilik shakllarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri takrorlash har doim ham samarali yechim bo‘lavermaydi. Aksincha, tarixiy me’morchilikning asosiy kompozitsion tamoyillarini aniqlash va ularni zamonaviy me’moriy vositalar orqali qayta talqin qilish muhim ahamiyatga ega.

Xiva tarixiy me’morchiligiga xos bo‘lgan ichki hovli, ayvon, peshtoq, ravoq, gumbaz, ritmik fasad, mutanosiblik, vertikal va gorizontal nisbatlar, mahalliy material hamda ranglardan foydalanish kabi yechimlar zamonaviy arxitekturada turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, an’anaviy ichki hovli zamonaviy jamoat binolarida atrium yoki ochiq rekreatsiya maydoni sifatida, ayvon esa iqlimga moslashtirilgan soyali ochiq makon sifatida qayta shakllantirilishi mumkin. Shu orqali tarixiy tajriba zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Bugungi qurilish amaliyotidagi asosiy muammolardan biri — yangi me’moriy obyektlarning tarixiy muhit bilan kompozitsion jihatdan mos kelmasligidir. Bino balandligi, hajmi, fasad ritmi, rang yechimi va materiallarining mavjud tarixiy muhitdan keskin farq qilishi shahar qiyofasining yaxlitligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli yangi qurilishda tarixiy muhitga hurmat bilan yondashish, biroq zamonaviy arxitekturani faqat tarixiy shakllarning nusxasi sifatida yaratmaslik muhimdir.

Shu nuqtayi nazardan, Xiva tarixiy me’morchiligiga xos an’anaviy kompozitsion yechimlarni o‘rganish va ularning zamonaviy arxitekturadagi qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir. Mazkur yondashuv tarixiy merosni saqlash, zamonaviy arxitektura bilan tarixiy muhit o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlash hamda Xivaning o‘ziga xos me’moriy qiyofasini kelajak avlodlar uchun asrab qolishga xizmat qiladi.

Tarixiy me’morchilikni shunchaki nusxalash emas, balki uning kompozitsion prinsiplarini zamonaviy arxitekturada ijodiy qo‘llash zarur.

So‘ngi yillarda an’anaviy me’moriy yechimlarga qiziqish ortib borayotgan bo‘lsa-da, milliy me’morchilik va dekorativ bezaklardan ko‘pincha turistik obyektlarni shakllantirishda foydalanilmoqda. Muammo shundaki, milliy me’moriy an’analarni faqat turizm sohasi bilan cheklab qolmasdan, zamonaviy turar joy va maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlarida ham keng qo‘llash zarur. Misol tariqasida shuni ham aytib o’tish joizki, bugungi kunda Xorazm viloyatida shahar va tumanlarni qayta qurish, yangi turar joy majmualari hamda xizmat ko‘rsatish obyektlarini barpo etish jarayonlari davom etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yangi qurilishlarda Xorazm hududiga xos an’anaviy me’moriy-kompozitsion yechimlardan foydalanish tarixiy-madaniy o‘ziga xoslikni saqlash bilan birga, zamonaviy arxitekturaning mahalliy muhit bilan uyg‘unlashishiga xizmat qilishi mumkin**.**

Masalan: An’aviy yechimlarning zamonaviy arxitekturadagi imkoniyatlari

Ichki hovli – Zamonaviy atrium yoki rekreatsiya hududi

Ayvon – Soyali ochiq-terrasa

Ravoq – Zamonaviy fasad moduli

Peshtoq – Kirish kompozitsiyasining asosiy aksenti

Gumbaz – Zamonaviy tom yoki jamoat binosi elementi

G’isht va Koshin – Zamonaviy fasad materiali yoki dekorativ modul

Ritmik fasad – Quyoshdan himoyalovchi vertikal/gorizontal lamellar

Mahalliy ranglar – Zamonaviy fasadning rang konsepsiyasi

Tadqiqotning maqsadi: Xiva tarixiy me’morchiligiga xos an’anaviy kompozitsion yechimlarni aniqlash va ularni zamonaviy arxitektura obyektlarida qo‘llashning asosiy tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

An’anaviy kompozitsion yechimlardan foydalanish tamoyillari

Xiva tarixiy me’morchiligiga xos kompozitsion yechimlarni zamonaviy arxitekturaga tatbiq etishda ularni aynan takrorlash emas, balki mazmuni va kompozitsion mohiyatini zamonaviy me’moriy vositalar orqali qayta talqin qilish muhimdir. Bunda, avvalo, yangi binoning hajmi, balandligi va masshtabi mavjud tarixiy muhit bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Fasadlarda an’anaviy ritm, mutanosiblik va bo‘linish prinsiplaridan foydalanish esa yangi obyektning tarixiy muhitga moslashishiga yordam beradi.

Shuningdek, Xivaga xos ichki hovli, ayvon, ravoq va peshtoq kabi an’anaviy elementlardan zamonaviy funksional yechimlar asosida foydalanish mumkin. Mahalliy materiallar, ranglar va bezaklardan oqilona foydalanish orqali hududning

milliy va tarixiy o‘ziga xosligini saqlab qolish mumkin. Bunda zamonaviy konstruksiya va texnologiyalarni qo‘llash bilan tarixiy me’morchilikning badiiy xususiyatlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlash asosiy talab hisoblanadi.

Xulosa:

Xiva tarixiy me’morchiligi asrlar davomida shakllangan boy kompozitsion tajribaga ega bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari bugungi zamonaviy arxitektura uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida Xiva me’morchiligiga xos bo‘lgan masshtab va mutanosiblik, ritm, ichki hovli, ochiq va yopiq makonlarning uyg‘unligi, me’moriy aksentlar hamda mahalliy material va ranglardan foydalanish kabi tamoyillar zamonaviy arxitekturada qo‘llash uchun muhim vositalar ekanligi aniqlandi.

Zamonaviy binolarni tarixiy muhitga moslashtirishda an’anaviy shakllarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirishdan ko‘ra, ularning kompozitsion mohiyatini zamonaviy shakl, material va texnologiyalar orqali ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv bir tomondan zamonaviy funksional va texnologik talablarni ta’minlasa, ikkinchi tomondan Xivaning tarixiy-me’moriy qiyofasini saqlash imkonini beradi.

Shuningdek, Xivaga xos an’anaviy kompozitsion yechimlardan faqat turistik obyektlarda emas, balki zamonaviy turar joy, jamoat va maishiy xizmat ko‘rsatish binolarini loyihalashda ham foydalanish imkoniyatlari mavjud. Ichki hovli, ayvon, ravoq, ritmik fasad, mahalliy material va ranglar kabi elementlarni zamonaviy funksional yechimlar bilan uyg‘unlashtirish orqali hududning milliy me’moriy o‘ziga xosligini saqlagan yangi arxitektura muhitini shakllantirish mumkin.

Shu sababli Xiva tarixiy me’morchiligining an’anaviy kompozitsion yechimlarini zamonaviy arxitekturada ijodiy va ilmiy asosda qo‘llash tarixiy merosni asrash, yangi qurilishlarni mavjud muhit bilan uyg‘unlashtirish hamda milliy me’morchilikning zamonaviy rivojlanishini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tamoyillar kelgusida Xorazm hududidagi yangi qurilish va rekonstruksiya loyihalarida mahalliy me’moriy an’analarni zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari. Xiva tarixiy me’morchiligidagi ichki hovli, ayvon, ravoq, peshtoq, ritm, mutanosiblik, mahalliy material va rang kabi kompozitsion vositalarni zamonaviy arxitekturada funksional va texnologik talablar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xiva shahri me’morchiligi tarixi. O‘quv-uslubiy elektron material. — ZiyoNET elektron kutubxonasi.
2. O‘zbekiston Travel. “Xiva tarixi”. Elektron manba. — O‘zbekiston Travel.